

## BENZILPENISILLIN PREPARATINING ORGANIZMDAGI ROLI

**Zulfiqarova Manzura Yamin qizi**

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabasi*

**Jalilova Fotima Abdug'affo qizi**

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabasi*

**Masharipova Dilfuza Haydar qizi**

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabasi*

**Tadqiqot maqsadi:** Benzilpenisillin preparatining ishlatalish holatlari va ularning organizmdagi nojo'ya ta'sini o'rghanish.

**Tadqiqot materiallari va metodlari:** Mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan yallig'lanishli jarayonlarida qo'llanilib, bemorlarni kuzatish va ularning klinik-labarator tekshiruv natijalarini taqqoslash usullaridan foydalangan holda ushbu tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Benzilpenisillinning plazma oqsillaridan albuminlar bilan bog'lanishi yuqori(80%). Organizmda bir tekis tar-qalib, plasentar bar'er orqali yaxshi o'tadi, gematoensefalik to'siqdan kam o'tadi. Benzilpenisillinning ko'p miqdori organizmdan buyaklar orqali o'zgarmasdan chiqib ketadi. Benzilpenisillin antibiotiklardan bo'lib, penitsillinlarning yarim sintez yo'li bilan olingan biosintetik penisillindir. Ushbu preparat mikroorganizmlar qobig'ining hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi va natijada bo'linayotgan mikoorganizmlarga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Asosan grammausbat mikroorganizmlarga: streptokokk, pnevmakokk, qoqshol, kuydirgi, gazli gangrenani paydo qiladigan, grammanfiy mikroorganizmlardan esa: gonokokk, meningokokklarga qarshi ta'sir etadi. Benzilpenisillinlar tibbiyotda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, asosan: zotiljam, tonzillit, sepsis, piemiya, difteriya, qizilcha, aktinomikozda, teri va yumshoq to'qimalar va shilliq qavatlarning yiringli yallig'lanishi, saramas, meningit, zaxm, moxov, yuqumli ko'z xastaliklari, buyrak va o't pufagi kasalliklari-ganoreya va blannoreya kani kasalliklarni davolashda keng miqyosda foydalilanildi. Muayyan preparatning kimyoviy tuzilishiga kiruvchi bezilpenisillinning natriyli, kaliyli, novakainli tuzi, bisillin1, bisillin-3, bisillin-5 kabi turlari keng miqyosda ishlatalidi. Benzilpentsillin suvda kam eruvchan bo'lganligi uchun qo'llanilishida faqat mushak orasiga yuboriladi va asta-sekin qonga so'riladi. Ushbu preparatning ta'siri qisqa bo'lganligi uchun novakaina eritiladi va dyurant turlaridan: benzilpenisillinning novakainli tuzi –novasillin va bisillinlar

ishlab chiqarilgan.Benzilpenitsillnlarni qo'llash usuli va dozlash rejimi uning chiqarilish shakliga va boshqa omillarga bog'liq Optimal dozlash rejimi shifokor tomonidan belgilanadi.Preparatning dozalash shakliga ,foydalanish ko'rsatmalariga qat'iy rioxasi qilish lozim.Benzilpenitsillin flakonda 1mln IU da chiqariladi.Qo'llashda allergik reaksiyalarni oldini olish maqsadida, albatta, sinamadan so'ng in'eksiya yuboriladi. Infeksiyani o'rtacha og'irlilikda kechishida mushak orasiga 25000-50000 IU dozada kuniga ikki mahal yuboriladi .Shuningdek bir yoshgacha bo'lган bolalarga 5000-100000 IU sutkalik dozalarda ,endolumbal yuborishda esa kasallikning og'irlilik darajasiga qarab 500-2000 IU qo'llaniladi.Benzilpenisillin bir qancha yon ta'sirlarni ham chaqirishi mumkin.Masalan quyidagicha: 1-allergik reaksiyalar:eshakemi toshishi,bo'g'imlarda og'riqlar,angionevrotik shish va o'limga olib keluvchi anafilaktik shok holatlari,2-ovqat hazm qilish tomonidan:diareya, ko'ngil aynishi, quşish,3-kimyoterapevtik ta'siri bilan bog'liq samaralari:qin kandidozi ,og'iz bo'shlig'I kandidozi, 4-markaziy nerv tizimi tomonidan neyrotoksik reaksiyalar:ko'ngil aynishi quşish,meningizm simptomlari,tirishishlar,koma holatlari yuzaga kelishi mumkin.Shunindek laktatsiya davrida qo'llash zarurati bo'lganda emizishni to'xtatishi lozim. Benzilpenitsillinni qo'llash mumkin bo'lмаган holatlar:ushbu guruh preparatlariga sezuvchanlik aniqlanganda va tutqanoq bilan xastalangan bemorlarga endolumbal yuborish tavsiya etilmaydi.

**Tadqiqot natijalari:** benzilpenitsillin preparati farmakokinetikasi ,farmakodinamikasi,tasir davomiyligi,ko'rsatmalar va qo'llanganda bemordagi o'zgarishlar haqida yozildi.

**Xulosa:** O'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki,benzilpenitsillin preparati mikroorganizmlar keltirib chiqargan yallig'lanish kasalliklarida keng miqyosda qo'llaniladi.Benzilpenitsillining ishlab chiqariladigan har qanday shaklini qo'llash tajribali mutaxassislarning ko'rsatmalariga asasan qabul qilinishi va doimiy nazorat ostida turishi lozim.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. S.S Azizova – farmakalogiya „Antibiotiklar” 374-379 betlar.Toshkent „Abu Ali Ibn Sino” 2000.
2. M.J Allayeva, Z.Z Hakimov-farmakalogiya „Antibakterial kimyoterapiya vositalari” . „HIOL MEDIA”. Toshkent 2020
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005.